



NAMANGAN VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI



**NAMANGAN VILOYATIDA  
MAKTABGACHA TA'LIMNING  
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**  
*(2024- yil 1- yanvar holatiga)*



NAMANGAN VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**NAMANGAN VILOYATIDA  
MAKTABGACHA TA'LIMNING  
ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI**  
*(2024-yil 1-yanvar holatiga)*





## NAMANGAN VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI

**Maktabgacha ta'lism bo'yicha press-reliz** – bu sohadagi rivojlanishlanish tendentsiyalarini kuzatib borish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu press-relizda, birinchi navbatda, maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini tafsiflovchi va bu sohaga boshqacha nuqtai nazardan qarash imkonini beruvchi rasmiy statistik ma'lumotlar keltirilgan.

**Press-relizning asosiy maqsadi** maktabgacha ta'lim sohasidagi hozirgi holatni aks ettirish, taqdim etilayotgan maktabgacha ta'lim sifatiga, barqaror rivojlanishga erishish yo'lidagi natijalar sarhisobi, shuningdek, farzandlarimizning ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashishdan Iborat.

**Maktabgacha ta'lim** bola hayotidagi eng muhim bosqich bo'lib, u bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shaxsning shakllanishiga, uning intellektual, ma'naviy- axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga, shuningdek, bolalarni umumiyl o'rta ta'limga tayyorlashga ta'sir qiladi va ularning kelajagini belgilaydi. Garchi bu bolalar rivojlanishining turli sohalari bo'lsa-da, ular o'zaro bog'liqdir. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim, ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi va uning ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda.


Press-relizda maktabgacha ta'lim tizimining turli jihatlarini tafsiflovchi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'shgan holda) asosiy ko'rsatkichlari, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ulardag'i bolalar soni, ushu sohada faoliyat yuritayotgan pedagoglar va tarbiyachilar soni, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari kabi ma'lumotlar keltirilgan.

**Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti** faqat davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti shaklida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim xizmatlari yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladi.



Ushbu press-reliz O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'yicha idoraviy ma'lumotlari integratsiyasi orqali olingen ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

**Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan  
maktabgacha ta'lif tashkilotlari soni**  
(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, birlik)




Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lif tashkilotlari, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlari sonini qo'shgan holda, 2024-yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, 3 612 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yilning 1- yanvar holatiga nisbatan 2 943 taga (ya'ni 18,5 barobarga) oshgan.

**Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lif tashkilotlari sonining  
hududlar kesimida taqsimlanishi**  
(2024-yil 1- yanvar holatiga, birlik)



Agar 2024-yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lif tashkilotlarining eng katta qismi To'raqo'rg'on (475 ta), Uychi (470 ta) va Yangiqo'rg'on (455 ta) viloyatlarida kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Mingbuloq (135 ta), Namangan (172 ta) va Norin (183 ta) viloyatlarida qayd etilgan.


**Namangan viloyati matabgacha ta'lif  
tashkilotlaridagi o'rinxar soni \***  
(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming birlik)



Maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi o'rinxar soni ushbu sohadagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri deb hisoblanib, barcha kichik yoshdagisi bolalarga bolalar bog'chalariga borish va maktabga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ta'minlanishini aks ettiradi.

\* 2024-yil 1-yanvargacha oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi o'rinxar soni to'g'risidagi ma'lumotlarsiz keltirilgan.


**Maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi o'rinxar sonining  
hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024-yil 1-yanvar holatiga, ming birlik)**



2024-yil 1-yanvar holatiga maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi o'rinxar sonining eng kata qismi Namangan shahri (49078 ta), Uychi(26945 ta) va Chust (25474 ta) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on (14998 ta) hamda Mingbuloq(12696 ta) viloyatlarida kuzatilgan.

# NAMANGAN VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIMNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


## Namangan viloyati matabgacha ta'lif tashkilotlaridagi guruhlar soni\* (tegishli yilning 1-yanvar holatiga, birlik)



\* 2024-yil 1-yanvargacha oilaviy nodavlat matabgacha ta'lif tashkilotlaridagi guruhlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarsiz keltirilgan.


Maktabgacha ta'lif muassasalaridagi guruhlar bolalarni tarbiyalash va o'qitish jarayonida muhim rol o'yinaydi. Ushbu guruhlar bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, bu esa ularning har tomonlama rivojlanishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

## Maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi guruhlar sonining hududlar kesimida taqsimlanishi (2024-yil 1-yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko'p maktabgacha ta'lif tashkilotlari guruhlari Namangan sh (1 529 ta), Uychi (1005 ta) va To'raqo'rg'on (945 ta) tumanlarida qayd etilgan, boshqa hududlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Mingbuloq (430 ta) hamda Namangan t (522 ta) tumanlarida kuzatilgan.

**Namanagn viloyatidagi oilaviy nodavlat  
maktabgacha ta'lif tashkilotlari soni**  
(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, birlik)



Namangan viloyatida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlari soni 2024-yilning 1- yanvar holatiga 2 870 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yilning 1- yanvariga nisbatan 2 805 taga oshgan.

**Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlari  
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi**  
(2024-yil 1- yanvar holatiga, birlik)




2024-yilning 1- yanvar holatiga oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlarining eng katta qismi To'raqo'rg'on (428 ta), Uychi (417 ta) va Yangiqo'rg'on (405 ta) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Mingbuloq (70 ta), Norin (122 ta) hamda Namangan (131 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

**Namangan viloyatida maktabgacha ta'lif  
tashkilotlaridagi bolalar soni**  
(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



Namangan viloyatida maktabgacha ta'lif tashkilotlari-dagi bolalar soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga 192,4 ming nafarni tashkil etdi, bu esa 2020-yilning 1-yanvariga nisbatan 82,1 ming kishiga (ya'ni 57,3 % ga) oshgan.


**Maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi bolalar  
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi**  
(2024-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)



2024-yilning 1-yanvar holatiga maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi bolalar sonining eng ko'p qismi Namangan sh (32 612 ming kishi), To'raqo'rg'on (18642 ming kishi) va Uychi (18 430 ming kishi) viloyatlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Mingbuloq (9671 ta) hamda Namangan (12 253 ming kishi) viloyatlarida kuzatilgan.


# NAMANGAN VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIMNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Namangan viloyati matabgacha ta'lif tashkilotlaridagi bolalarning gender taqsimoti (tegishli yilning 1-yanvar holatiga, %)




2024-yilning 1-yanvar holatiga matabgacha ta'lif tashkilotlaridagi bolalar sonida o'g'il bolalarning ulushi 53,3 % ni, qizlarning ulushi esa 46,7 % ni tashkil etgan.

## Maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi bolalar sonining hududlar bo'yicha gender taqsimoti (2024-yil 1-yanvar holatiga, %)




**Namangan viloyatida 3-6 yoshdagi bolalarni  
maktabgacha ta'lif bilan qamrab olinishi  
(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, % da)**



3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lif bilan qamrab olinishi bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Jumladan, 2020-yilning 1- yanvar holatiga bolalarning 20,8 % i maktabgacha ta'lif olish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, 2024-yilning 1- yanvar holatiga esa bu ko'rsatkich 71,4 % gacha yetdi. Ushbu ijobjiy tendensiyani bolalarni erta bolalik davrida har tomonlama rivojlanishi uchun ta'lif strategiyalari va dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasi sifatida baholash mumkin.

**3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lif bilan qamrovining  
hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024- yil 1- yanvar holatiga, % da)**



2024- yilning 1- yanvar holatiga 3-6 yoshdagi bolalarning eng ko'p qismi Namanagn sh (89,0 %), Uychi (86,5 %) va To'raqo'rg'on (84,4 %) tumanlari-da maktabgacha ta'lif bilan qamrab olingan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past qamrov Chortoq (70,0 %) hamda Kosonsoy (71,6 %) tumanlarida kuzatilgan.




**Namangan viloyatida 3-6 yoshdagi bolalarni  
jinsi bo'yicha maktabgacha ta'lif bilan qamrab olinishi  
(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, % da)**



2024-yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 3-6 yoshdagi o'g'il bolalarning maktabgacha ta'lif bilan qamrovi 72,9 % ni, qizlarning qamrovi esa 69,7 % ni tashkil etdi.

**3-6 yoshdagi bolalarni jinsi bo'yicha maktabgacha ta'lif bilan  
qamrab olinishining hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024-yil 1- yanvar holatiga, % da)**



## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Maktabgacha ta'lismi va tarbiya** — bolalarga ta'lismi va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lismi turi.

**Maktabgacha ta'lismi tashkiloti** — maktabgacha ta'lismi va tarbiya sohasida ta'lismi va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti.

**Davlat maktabgacha ta'lismi tashkiloti** — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lismi va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lismi va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot.

**Nodavlat maktabgacha ta'lismi tashkiloti** — nodavlat ta'lismi xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta'lismi va tarbiya xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

**Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lismi tashkiloti** faqat davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lismi tashkilotlarini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etiladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida 50 nafargacha bolalarga maktabgacha ta'lismi va tarbiya berilishiga yo'l qo'yiladi.

**Maktabgacha ta'lismi tashkilotlaridagi bolalar soni** — yil oxirida maktabgacha ta'lismi tashkilotlari ro'yxatida turgan maktabgacha ta'lismi yoshidagi bolalar soni.

**Maktabgacha bo'lgan yosh** — bolalarning tug'ilgan paytidan yetti yoshgacha, to ularga umumiy o'rta ta'lismi tashkilotlarida ta'lismi berish boshlangan paytga qadar bo'lgan yoshi.

**Bolalarning maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida joylar bilan ta'minlanganligi** — ushbu ko'rsatkich bolalar sonining maktabgacha ta'lismi muassasalaridagi joylar soniga nisbati bilan aniqlanadi. Qiyosiy tahlilda bu yerda maktabgacha ta'lismi tuzilmalaridagi har 100 ta joyga to'g'ri keladigan bolalar soni bo'yicha ma'lumotlar qo'llaniladi.

**3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lismi bilan qamrab olinishi** — ushbu ko'rsatkich maktabgacha ta'lismi tashkilotlari ro'yxatida turgan 3-6 yoshdagi bolalar sonining mazkur yoshdagi aholi soniga (doimiy aholining joriy hisobi asosida olingan demografik statistik ma'lumotlarga ko'ra) nisbati bilan aniqlanadi.



## Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul: Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Namangan viloyati  
statistikika boshqarmasi

Manzil: 160133, Namangan  
sh, N.Namangoniy  
ko'chasi, 14-uy.  
Tel.: +99869 227-84-94



e-mail: [info@namstat.uz](mailto:info@namstat.uz)



[www.namstat.uz](http://www.namstat.uz)



[facebook.com/namstat.uz](https://facebook.com/namstat.uz)